

SUITSIDAL XULQ-ATVOR-PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

Jo'rayeva Oysara Normurodovna

*Qahqadaryo viloyati Kitob tumani 44-umumiy o'rta ta'lim
maktab amaliyotchi psixologi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada suitsidal xulq-atvor namoyon bo'lishining psixologik omillari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Suitsidal xulqning psixologik ta'sir darajalari kompleks ravishda o'rganilgan. Shuningdek, suitsidal xulq-atvor namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari tadqiqotlar orqali keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: suitsid, xulq-atvor, psixologik xususiyat, ta'sir, shaxs, individuallik

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritib, jahonning rivojlangan davlatlari orasida munosib o'rinni egallab, dadil qadamlar bilanilgarilab borar ekan, shubhasiz shu mustaqillikni va uning porloq istiqbolini ta'minlovchi omillarning ahamiyati tobora ortib boraveradi. Barkamol avlod kamoloti g'oyasini turmushga tatbiq etish uchun istiqbolning dastlabki kunlaridanoq milliy ma'naviyat, milliy ta'lim va tarbiya muammolarini hal qilishga jiddiy e'tibor berilmoqda. Mamlakatimizda maorif tizimida aniq va ravshan hamda ilmiy asoslangan davlat siyosati mavjud. U insonparvarlik va demokratiyaga suyangan bo'lib, unda har bir fuqaroning ta'lim va tarbiya olishi konstitutsiya asosida qonunlashtirib qo'yilgan. Zamonaviy psixologiya fanida shaxslar davriga xos bo'lgan suitsid xulq-atvor muammosini o'rganishga doir ahamiyatli nazariy va amaliy tajriba to'plangan (Kovalev V.V, Lichko A.Ye, Ambrumova A.G, Vrono Ye.M, Kononchuk N.V.) Suitsid xulq-atvor ko'p vaqt mobaynida faqatgina ruhiy kasalliklar doirasida o'rganib kelindi.

O'tgan asrning 80-yillarida bir guruh olimlar tomonidan butunittifoq ilmiy-uslubiy suitsidologik markaz tashkil etilib, mikrosotsial nizolarni his etish sharoitida yuzaga keladigan shaxs ijtimoiy-psixologik dezadaptatsiyasi oqibatida yuzaga keladigan suitsid xulq-atvor konsepsiyasi ishlab chiqildi. Suitsidologiya bo'yicha e'lon qilingan ishlar orasida, shizofreniya va depressiv buzilishlar xos bo'lgan shaxslarda suitsid harakatlarning namoyon bo'lishini tadqiq etishga bag'ishlanganlari asosiy o'rinni egallab kelgan. Suitsid va suitsidga qarshi motivatsiya kompleksi, suitsid xulq-atvorning deviatsiyaning o'zga ko'rinishlari bilan aloqadorligi masalasi nisbatan mufassal o'rganilgandir. Shuningdek, oila kichik ijtimoiy guruh va tarbiya sharoitlari ijtimoiy-psixologik adaptatsiya omili sifatidaligi masalasi batafsil, biroq suitsid xulq-atvor bilan aloqadorligi inobatga olinmagan holda tadqiq etilgan. Natijada shaxslar suitsid xulq-atvori muammosining keskin tus olganligi, uzoq vaqt davomida yetarlicha o'rganilmaganligi, mazkur hodisani tadqiq etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Ushbu jarayonda individning ijtimoiy, motivatsiyaviy-ehtiyojij, shaxsiy sohasi buzilishlari

profilaktikasi va korreksiyasiga yo'naltirilgan, zamonaviy tamoyillar, metod va vositalarni bilishga asoslangan shaxslar suitsid xulq-atvori psixologik diagnostikasi va korreksiyasining samarali protsedurasini ishlab chiqish dolzarb, mantiqiy jihatdan asoslangan vazifa ahamiyatini kasb etadi.

Tarixiy tendensiya shundayki, davlat va sinflarning yuzaga kelishi va rivojlangani sari jamiyat o'z joniga qasd qilish holatlariga nisbatan yanada qattiqqo'l munosabatda bo'la boshlaydi. Davlatning manfaatlari xususiy erkinlikni, aniqrog'i shaxs erkinligining cheklanishini talab qila boshladi. Uyg'onish davriga kelib Angliya va Fransiyada insonning tabiiy huquqlari haqida fikr bildirila boshlandi. XVI asrda fransuz mutafakkiri Monten antik davr faylasuflarining o'z joniga qasd qilish muammosiga doir qarashlarini qaytadan jonlantirib, bunday harakatlarni psixologik va huquqiy jihatdan oqlashga urinadi. R.F. Baumeister, S.J. Scher tomonidan amalga oshirilgan adabiyotlarda ko'p hollarda ko'rib chiqiladigan autodestruktiv xulq-atvor turli shakllarining tahliliga doir ma'lumotlarga ko'ra, ular asosan ikkinchi va uchinchi tipga kiritilishi mumkin bo'lib, biroq birontasi ham birlamchi autodestruktiv xulqqa kiritilmaydi. Mualliflar xulosasiga ko'ra, sog'lom kishilar o'zlariga zararni noadekvat reaksiyalar, samarasiz metodlarning kutilmagan natijalari, tavakkal va sarflangan kuchni noto'g'ri baholanishi natijasida yetkazishadi. Bunda aslo ongli ravishda o'z-o'zini halok etishga intilish kuzatilmaydi.

Suitsid xulq-atvor umuminsoniy reaksiyalarning bir varianti sifatida suitsid faollikning barcha ko'rinishlari, individning shaxsiy harakatlari asosidagi ehtimoliy o'limning barcha variantlariga munosabatini qamrab olib, ularga quyidagilar tegishlidir:

- suitsid fikrlar (passiv - tasavvur, o'z o'limi mavzusidagi xayolot (fantaziya), faol –ko'ngilli tarzda o'lim haqida to'g'ridan to'g'ri e'tirof);

- suitsid niyat – suitsidlik namoyon bo'lishining faol shakli, ya'ni o'z joniga qasd qilish tendeniyesi, uning chuqurlashuvi uni amalga oshirish rejasining ishlab chiqilganlik darajasiga muvofiq namoyon bo'lib, suitsid usuli, harakat vaqti va joyi o'ylab ko'riladi;

- suitsid maqsadlar – irodaviy komponentning qaroriga ergashish;

- suitsid urinishlar – o'lim bilan yakunlanmagan o'zini maqsadli ravishda hayotdan judo qilishga harakt;

- suitsidlar (ko'rgazmali, affektiv va haqiqiy).

O'smirlarda suitsidoldi sindromi mezonlarini quyidagilarda umumlashtirish muki:

- anamnezda o'z joniga qasd qilish fikrlarining mavjudligi;

- disforik holat qismlari (g'amginlik, xafalik, tushkunlik hissi);

- uyqusizlik, charchoqlik, vegetativ o'zgarishlar kabi buzilishlar;

- o'z joniga qasd qilishni amalga oshirish usullari haqidagi aniq tasavvurlar

shakllanadi.

Suitsidoldi sindiromi S. Enachescu, A. Retezeanu tomonidan klinik psixiatriya va insoniyatning ontologik muammolari (kritik vaziyatda insonning mavjudligi muammosi sifatida) o'rtasidagi chegarada o'rganiladi.

Suitsidoldi sindromining prodromal simptomli uch bosqichi ajratilib ko'rsatilali:

- psixik taranglik bosqichi;
- marginal vaziyat bosqichi;
- psixik keskinlikni yumshatish bosqichi.

Tadqiqotchilar ma'lumotiga ko'ra, 40 %ga yaqin suitsid harakatlarni sodir etgan yoshlar, anamnezda bir yoki bir necha marta o'z joniga qasd qilishga urinishgan. Suitsidga birinchi urinishni sodir etgandan keyingi bir yil mobaynida 30 % holatida ushbu akt qayta sodir etilgan, shundan 1-2 % insonlar suitsid natijasida halok bo'lishgan. O'z joniga qasd qilish harakatini sodir etgan ko'pchilik shaxslarni o'z maqsadlaridan qaytishga ishontirish mumkindir.

Xulosa:

Suitsidal xavf ehtimoli bo'lgan shaxs bilan ishlashda psixologik korreksiya suitsidal xavf holati bilan ishlashning maqbul shakli sifatida qo'llash tavsiya etiladi. Psixologik korreksiya strategiyasining turli shakllari tahlili suitsidal xulq-atvorning individual-psixologik korreksiyasini qo'llash lozimligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar:

1. Averin V.A. Psixologiya lichnosti: Uchebnoye posobiye. SPb.: Izd-vo V.A.Mixaylova, 1999. - 89 s.
2. Akopyan K.Z. Samoubiystvo: problema motivatsii (razmishleniya v svyazi s psixologicheskimi etyudom H.A. Berdyayeva "O samoubiystve"// Psixologicheskii jurnal Tom 17. № 3. 1996 s. 153- 158
3. G'oziyev E. Shaxs psixologiyasi va kasb tanlash. - Toshkent: O'zbekiston, 1987. - 30 b.
4. Bakeyev V.A. Psixologicheskiye problemi povisheniya effektivnosti upravlencheskix resheniy rukovoditeley organov vnutrennix del: Uchebnoye posobiye. M.: Akademiya MVD SSSR, 1983. - 90 s.
5. Voysex V., Kucher A, Kostyukevich V. Metodika diagnostiki suitsidalnix namereniy u voyennoslujashix, uchastnikov boyevix deystviy. Perm, 2000.
6. Davidov V.P., Salnikov V.P., Slepov V.Ya. Osnovi pedagogicheskoy psixologii visshey shkoli MVD Rossii: Uchebnik. SPb, 2000. - 255 s.
7. Kikot V L. Sistema nauchnogo obespecheniya professionalnoy podgotovki slushateley VUZov MVD Rossii Diss. dokt. ped. nauk. - SPb.: SPBGU, 1998.